XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Xalqaro Nordik universiteti

rektori Sh. Mustafakulov

2026-yil “2” noyabr

RAQAMLI TA’LIM JARAYONINI BOSHQARISH TIZIMI (HEMIS VA LMS) TO‘G‘RISIDA

NIZOM

2026/2027 o‘quv yili

Universitet Kengashidan o‘tkazilganligi:

Universitet Kengashining 2026-yil 30-oktabrdagi 10-son yig‘ilishida muhokama qilingan va amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.

Toshkent – 2026

UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom Xalqaro Nordik universitetida (keyingi o‘rinlarda – Universitet) ta’lim jarayonini, shu jumladan oliy ta’limdan keyingi ta’lim va ilmiy faoliyat jarayonlarini raqamli boshqarish tizimining tarkibini, HEMIS, LMS va boshqa axborot tizimlarida ma’lumotlarni yuritish, tekshirish va vakolatli davlat organlarining axborot tizimlari bilan almashish tartibini, foydalanuvchi hisoblarini boshqarish, talabalar va professor-o‘qituvchilarning (keyingi o‘rinlarda – PO) elektron resurslarga uzluksiz kirishini ta’minlash, monitoring va hisobot berish tartibini hamda mas’ullarni belgilaydi.

1.2. Nizomning maqsadi – ta’lim jarayoni ma’lumotlarining yagona, ishonchli va o‘z vaqtida yangilanadigan manbasini ta’minlash, shu ma’lumotlar asosida o‘quv jarayonini boshqarish va uning sifatini nazorat qilish, talabalar, PO va ma’muriyat uchun raqamli xizmatlardan uzluksiz foydalanish sharoitini yaratish.

1.3. Nizom quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:

– O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni,

– O‘zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrdagi 560-II-son “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni,

– O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni,

– O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O‘RQ-764-son “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni,

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 30-iyundagi 403-son “Respublikada nodavlat ta’lim xizmatlari sifatini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (nodavlat oliy ta’lim tashkilotining o‘z axborot tizimini Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) ta’lim jarayonlarini boshqarish yagona axborot tizimi – HEMIS ga integratsiya qilishi, ma’lumotlarni HEMIS ga kiritib, muntazam yangilab borishi talablari),

– Universitet Ustavi va ichki me’yoriy hujjatlari.

1.4. Axborot xavfsizligini boshqarishda ISO/IEC 27001 xalqaro standarti yo‘naltiruvchi standart sifatida qo‘llaniladi.

1.5. Nizom Universitetning barcha fakultetlari, kafedralari, departament va bo‘limlari, PO, xodimlari, talabalari, tayanch doktorantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va stajyor-tadqiqotchilar (keyingi o‘rinlarda – tadqiqotchilar) hamda ilmiy rahbarlar uchun majburiy. Nizom 1-ilovadagi axborot tizimlari reyestriga kiritilgan tizimlarga, shu jumladan Vazirlikning HEMIS axborot tizimining Universitet tomonidagi qismiga – foydalanuvchi hisoblari, kiritiladigan ma’lumotlar va eksport qilingan hisobotlarga tatbiq etiladi.

1.6. Raqamli ta’lim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslanadi: o‘quv jarayonining rasmiy ma’lumotlari bitta tizimda yuritiladi, har bir ma’lumot turining aniq egasi bo‘ladi, ma’lumot asos hujjat bo‘yicha kiritiladi va

o‘zgartiriladi, kirish huquqi rol bo‘yicha va zarur doirada beriladi, raqamli xizmatlar internet orqali uzluksiz ishlaydi.

1.7. Axborot xavfsizligi masalalari “Raqamli ta’lim muhitida axborot xavfsizligi to‘g‘risida nizom” (keyingi o‘rinlarda – Axborot xavfsizligi nizomi), texnik qo‘llab-quvvatlash masalalari “Axborot tizimlarini texnik qo‘llab-quvvatlash faoliyati to‘g‘risida nizom” (keyingi o‘rinlarda – Texnik qo‘llab-quvvatlash nizomi), elektron kutubxona faoliyati “Elektron kutubxona va raqamli resurslar boshqaruvi to‘g‘risida nizom”, ta’lim jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish Universitet Kengashining 2025-yil dekabrdagi 12-son yig‘ilishida tasdiqlangan “Xalqaro Nordik Universitetida sun’iy intellektdan foydalanishning tartib-qoidalari to‘g‘risidagi Nizom” bilan batafsil tartibga solinadi.

ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

– raqamli ta’lim muhiti – ta’lim jarayonini rejalashtirish, yuritish, nazorat qilish va unga xizmat ko‘rsatish uchun foydalaniladigan axborot tizimlari, platformalar va ularning infratuzilmasi majmui,

– HEMIS (oliy ta’limni boshqarish axborot tizimi) – Vazirlikning markazlashgan axborot tizimi, Universitet uni “HEMIS OTM” (xodimlar va PO uchun) va “HEMIS Student” (talaba kabineti) modullari orqali ishlatadi,

– LMS (o‘quv kurslarini boshqarish tizimi) – Moodle dasturi asosida Universitet serverida ishlaydigan onlayn kurslar platformasi,

– OneID – davlat yagona identifikatsiya tizimi, u orqali foydalanuvchi HEMIS ga alohida parolsiz kiradi,

– UID – Vazirlik tomonidan HEMIS da Universitetga berilgan identifikator,

– elektron jurnal – HEMIS dagi mashg‘ulotlar bo‘yicha davomat va baholar qaydnomasi,

– fan resurslari – HEMIS da fan bo‘yicha joylanadigan sillabus, ma’ruza matnlari, taqdimotlar, topshiriqlar va boshqa o‘quv-uslubiy materiallar,

– ma’lumot egasi – ma’lumot turini kiritish, yangilash va uning to‘g‘riligi uchun javob beradigan bo‘linma,

– verifikatsiya – tizimdagi ma’lumotni asos hujjat (buyruq, mehnat shartnomasi, qaydnoma) bilan solishtirib, to‘g‘riligini tasdiqlash,

– nomuvofiqlik – tizimdagi ma’lumotning asos hujjatga yoki boshqa tizimdagi rasmiy ma’lumotga mos kelmasligi,

– ishlash vaqti (uptime) – tizim foydalanuvchilar uchun ochiq bo‘lgan vaqtning hisobot davri umumiy vaqtiga nisbati, foizda,

– xizmat ko‘rsatish muddatlari (keyingi o‘rinlarda – SLA) – murojaatga javob berish va uni bartaraf etishning ustuvorlik darajasi bo‘yicha belgilangan eng uzoq muddatlari.

2.2. Nizomda quyidagi qisqartmalar qo‘llaniladi: ARM – Axborot-resurs markazi, HR departamenti – HR va xodimlar malakasini oshirish departamenti (boshlig‘i B. Tolipova), KPI – samaradorlik ko‘rsatkichlari.

RAQAMLI TA’LIM MUHITI TARKIBI

3.1. Universitetning raqamli ta’lim muhiti quyidagi guruh tizimlardan iborat:

– Vazirlikning markazlashgan tizimi – HEMIS (hemis.nordicuniversity.org, student.nordicuniversity.org), u Vazirlik infratuzilmasida (serverida) joylashgan, Universitet uni o‘z subdomenlari orqali ishlatadi,

– Universitet serverlarida joylashgan va IT departamenti ishlab chiqqan yoki yuritadigan platformalar – LMS, elektron kutubxona, Rektor virtual qabulxonasi, repozitoriy, Karyera portali, Alumni platformasi, Forecasting platformasi, rasmiy veb-sayt,

– boshqa bo‘linmalar yuritadigan va IT departamenti texnik qo‘llab-quvvatlaydigan tizimlar – abituriyent kabineti, ilmiy jurnal,

– tashqi xizmatlar – dars jadvali uchun EduPage (nordic.edupage.org), korporativ elektron pochta (xosting provayderi serverida, xodimlar hisoblarini IT departamenti boshqaradi).

3.2. Har bir tizimning nomi, manzili, egasi va joylashuvi, vazifasi, kirish usuli va mas’uli axborot tizimlari reyestrida (1-ilova) belgilanadi. Universitet hujjatlari, sayt va yo‘riqnomalarda tizimlar reyestrdagi nomi va manzili bilan ko‘rsatiladi.

3.3. Reyestrni IT departamenti yuritadi. Yangi tizim reyestrga kiritilgandan va mas’uli rektor buyrug‘i bilan belgilangandan keyin foydalanishga topshiriladi. Foydalanishdan chiqariladigan tizim ma’lumotlari arxivlanadi va reyestrda “arxiv” deb belgilanadi. Reyestr har yili 1-sentabrgacha hamda har bir o‘zgarishdan keyin 5 ish kuni ichida yangilanadi.

3.4. Asosiy platformalar havolalari Universitet veb-saytining “Ta’lim resurslari” bo‘limida (nordicuniversity.org/uz/education/resources) joylanadi (4-ilova, 1-rasm). IT departamenti bo‘limni har semestr boshida reyestr bilan solishtiradi.

3.5. Tizimlar vazifasi bo‘yicha quyidagicha chegaralanadi: oliy ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayonining rasmiy ma’lumotlari – HEMIS da, Foundation dasturlari, onlayn seminar, trening va malaka oshirish kurslari – LMS da, dars jadvali – EduPage da, kutubxona resurslari – elektron kutubxonada, rahbariyatga murojaatlar – Rektor virtual qabulxonasida, PO ish rejalari, sillabuslar, KPI va yuklama taqsimotini rejalashtirish – Forecasting platformasida yuritiladi.

HEMIS DA MA’LUMOTLARNI YURITISH

4.1. HEMIS – Vazirlikning markazlashgan axborot tizimi bo‘lib, Vazirlik serverida joylashgan, Universitet identifikatori (UID) – 493, 2026-yil 16-oktabr holatidagi dastur versiyasi – 1.9.71. HEMIS ma’lumotlar bazasini server darajasida boshqarish va zaxiralash Vazirlik zimmasida. Universitet kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi, ularni o‘z vaqtida kiritish, foydalanuvchi hisoblari va huquqlari hamda eksport qilingan hisobotlar nusxalarini saqlash uchun javob beradi.

4.2. 2024-yildan barcha oliy ta’lim tashkilotlari HEMIS ga o‘tgani munosabati bilan Universitetda oliy ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni (fan resurslari, topshiriqlar, baholash, davomat) HEMIS da yuritiladi. Rasmiy baholar, davomat va reyting faqat HEMIS da qayd etiladi, boshqa tizimlardagi qaydlar rasmiy ma’lumot o‘rnini bosmaydi.

4.3. Ma’lumot asos hujjat bo‘yicha kiritiladi va o‘zgartiriladi. Yopilgan qaydnomadagi baho faqat “Talabalar bilimini baholash to‘g‘risida nizom”da nazarda tutilgan asos bilan, dekanning yozma bildirishnomasi bo‘yicha o‘zgartiriladi, asos hujjat dekanatda saqlanadi.

4.4. Dars jadvali EduPage tizimida tuziladi va HEMIS ga qo‘lda kiritiladi, HEMIS dagi jadval davomat va elektron jurnal uchun asos bo‘ladi, uning EduPage bilan uyg‘unligi Akademik ishlar departamenti tomonidan har semestr boshida va jadval o‘zgargan kuni tekshiriladi. Forecasting platformasi ichki rejalashtirish vositasi hisoblanadi, rasmiy o‘quv reja va yuklama ma’lumotlari HEMIS da yuritiladi, ikki tizim ma’lumotlarining mosligini Akademik ishlar departamenti ta’minlaydi.

4.5. HEMIS imkoniyatlari boshqaruv va nazoratda quyidagicha qo‘llaniladi: dekanatlar davomat va o‘zlashtirishni har kuni kuzatib, dars qoldirgan va qarzdor talabalar bilan ishlaydi, kafedra mudirlari fan resurslari joylanganligi va elektron jurnal to‘ldirilishini nazorat qiladi, Akademik ishlar departamenti HEMIS hisobotlari asosida semestr tahliliy ma’lumotini tayyorlaydi, rahbariyat va Universitet Kengashi PO reytingi, fan resurslari va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha qaror qabul qiladi.

4.6. Semestr yakunida dekanatlar yakuniy qaydnomalar va reyting hisobotlarini HEMIS dan eksport qilib, elektron nusxasini dekanat arxivida saqlaydi. Eksport nusxalarini saqlash va zaxiralash Axborot xavfsizligi nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.7. Ta’lim jarayoni ma’lumotlarining turlari, egalari, kiritish muddatlari va foydalanuvchilari 1-jadvalda belgilangan.

1-jadval.

Ta’lim jarayoni ma’lumotlarini yuritish va almashish

Ma’lumot turi	Tizim	Kim kiritadi va yangilaydi	Muddat, davriylik	Kimga ochiq, qayerga uzatiladi
Talabalar kontingenti (shaxsiy ma’lumot, kurs, guruh, ta’lim shakli, maqom)	HEMIS	Dekanatlar	Qabul, ko‘chirish, chetlatish, tiklash, akademik ta’til buyrug‘idan keyin 3 ish kuni ichida	Talaba (o‘z ma’lumoti), dekanat, Akademik ishlar departamenti, Vazirlik
PO va xodimlar (lavozim, stavka, ilmiy daraja va unvon)	HEMIS	HR departamenti	Kadrlar buyrug‘idan keyin 3 ish kuni ichida	PO (o‘z ma’lumoti), kafedra, Akademik ishlar departamenti, Vazirlik
O‘quv rejalar va fanlar	HEMIS	Akademik ishlar departamenti	O‘quv yili boshlanishidan kamida 10 kun oldin, o‘zgarish tasdiqlangach 5 ish kuni ichida	Dekanat, kafedra, talaba, Vazirlik

O‘quv yuklamasi, fanlarni PO ga biriktirish	HEMIS	Akademik ishlar departamenti (kafedra mudiri taqdimi bo‘yicha)	Semestr boshlanishidan kamida 5 ish kuni oldin	PO, kafedra, dekanat, Vazirlik
Dars jadvali	EduPage	Akademik ishlar departamenti	Semestr boshlanishidan oldin, o‘zgarish kuni	Talaba, PO, dekanat
Fan resurslari	HEMIS	Fan o‘qituvchisi	Semestr boshlanishiga qadar, o‘zgarish bo‘yicha	Fanni o‘qiyotgan talabalar, kafedra, Akademik ishlar departamenti
Davomat	HEMIS	Fan o‘qituvchisi	Mashg‘ulot o‘tkazilgan kuni	Talaba, dekanat, kafedra, Vazirlik
Baholar va reyting	HEMIS	Fan o‘qituvchisi, yakuniy qaydnomalar – dekanat	“Talabalar bilimini baholash to‘g‘risida nizom”da belgilangan muddatlarda	Talaba, dekanat, kafedra, Vazirlik
Talaba arizalari va murojaatlari	HEMIS Student, Rektor virtual qabulxonasi	Talaba	Doimiy	Dekanat, tegishli bo‘linma, rektor
Foundation dasturlari, seminar va kurslar natijalari	LMS	Kurs o‘qituvchisi	Kurs jadvali bo‘yicha	Tinglovchi, kurs tashkilotchisi (HEMIS ga uzatilmaydi)

“Vazirlik” – ma’lumot HEMIS markazlashgan bazasida Vazirlik uchun aks etadi, alohida uzatish talab etilmaydi.

LMS NING O‘RNI

5.1. LMS (distance.nordicuniversity.org) Moodle dasturi asosida Universitet serverida ishlaydi, uni IT departamenti yuritadi. LMS 2022–2023 yillarda sirtqi va kunduzgi ta’lim uchun ishlatilgan, ushbu davr kurslari arxiv sifatida saqlanadi.

5.2. LMS quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

– Foundation maktabi dasturlari – Nordik UN Foundation, Diplomat Foundation, Jahon tillar foundation, Rowan foundation,

– onlayn seminarlar, vebinarlar va treninglar,

– PO va xodimlarning malaka oshirish kurslari (masalan, “Xalqaro ilmiy bazalar bilan ishlash maxsus malaka oshirish kursi”).

5.3. HEMIS va LMS o‘zaro integratsiyalanmagan: HEMIS hisobi bilan LMS ga kirib bo‘lmaydi, LMS uchun alohida login va parol beriladi, ma’lumotlar avtomatik almashilmaydi. Oliy ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni 2024-yildan HEMIS da yuritiladi, LMS Foundation dasturlari, onlayn seminar, trening va malaka oshirish kurslari uchun ishlatiladi.

5.4. LMS dagi natija oliy ta’lim talabasining rasmiy bahosi hisoblanmaydi. Oliy ta’lim fanlari bo‘yicha rasmiy baho faqat fan o‘qituvchisi tomonidan HEMIS da qayd etiladi.

5.5. LMS hisobi kurs tashkilotchisi bo‘linmaning ishtirokchilar ro‘yxati asosida IT departamenti tomonidan yaratiladi. LMS foydalanuvchilariga qo‘llab-

quvvatlash Telegram boti (t.me/nordic_lms_support_bot) va Texnik qo‘llab-quvvatlash nizomida belgilangan boshqa kanallar orqali ko‘rsatiladi.

BOSHQA PLATFORMALAR VA MULOQOT KANALLARI

6.1. Elektron kutubxona (e-kutubxona.nordicuniversity.org) IT departamenti tomonidan ishlab chiqilgan, mazmun egasi – ARM. Foydalanuvchi HEMIS ID orqali ro‘yxatdan o‘tadi, elektron resurslar internet orqali kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun ochiq, bosma kitoblar ARM ish jadvali bo‘yicha beriladi.

6.2. Rektor virtual qabulxonasi (rm.nordicuniversity.org) talabalar, PO va xodimlarning rektorga murojaatlarini 15 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qiladi. Ro‘yxatdan o‘tish Telegram boti (t.me/xnu_rm_bot) orqali amalga oshiriladi, bot foydalanuvchini HEMIS orqali tekshiradi, javob haqidagi xabarnoma t.me/xnu_rm_admin_bot orqali yuboriladi. Murojaatlar “Talabalarning taklif, fikr-mulohaza va shikoyatlarini qabul qilish, ro‘yxatga olish va ko‘rib chiqish tartibi”ga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

6.3. Repozitoriy (repository.nordicuniversity.org) akademik va me’yoriy hujjatlar hamda ilmiy ishlarni ochiq va yopiq qismlarda saqlaydi. Karyera portali (career.nordicuniversity.org) vakansiyalar, amaliyotlar, grantlar va tadbirlar haqida axborot beradi, uning faoliyati “Karyera platformasi to‘g‘risida nizom” bilan belgilanadi. Alumni platformasi (alumni.nordicuniversity.org) bitiruvchilar tarmog‘i va statistik bazasini yuritadi. Forecasting platformasi (forecasting.nordicuniversity.org) sillabuslar, kafedra yillik ish rejalari, PO shaxsiy ish rejalari va KPI hamda yuklama taqsimotini yuritish uchun xizmat qiladi.

6.4. Talabalar, PO va ma’muriyat o‘rtasidagi raqamli muloqot quyidagi kanallar orqali amalga oshiriladi:

– HEMIS Student – talabaning dars jadvali, davomati, baholari, fan resurslari, topshiriqlari va arizalari, HEMIS OTM – PO va ma’muriyat uchun elektron jurnal, yuklama va hisobotlar,

– Rektor virtual qabulxonasi – rahbariyatga murojaat, taklif va g‘oyalar,

– LMS – kurs ichidagi xabarlar va forum, qo‘llab-quvvatlash Telegram boti,

– IT departamentiga texnik murojaat kanallari.

6.5. Muloqot kanallari orqali aniqlangan ma’lumot xatolari (baho, davomat, kontingent, kirish huquqi) ma’lumot egasiga yuboriladi, tuzatilgani haqida foydalanuvchiga xabar beriladi. Kanallardan foydalanish va murojaatlar tahlili yillik hisobotga kiritiladi.

VAKOLATLI DAVLAT ORGANLARI AXBOROT TIZIMLARI BILAN INTEGRATSIYA

7.1. Vazirlik bilan texnik integratsiya HEMIS arxitekturasi orqali ta’minlanadi: Universitet ma’lumotlarni Vazirlikning markazlashgan tizimiga UID 493 ostida bevosita kiritadi. Shu sababli kontingent, PO va xodimlar, o‘quv rejalar, yuklama, davomat, baholar va reyting ma’lumotlari (1-jadval) alohida uzatishsiz Vazirlikning markazlashgan bazasida aks etadi.

7.2. HEMIS ga kirish OneID davlat yagona identifikatsiya tizimi orqali ham amalga oshiriladi (4-ilova, 2-rasm). Universitet saytida 2024-yil 4-yanvarda e’lon qilingan ma’lumotga ko‘ra, HEMIS universal platformasi elektron hukumat doirasida vazirlik va tashkilotlar tizimlariga integratsiya qilingan.

7.3. Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) bilan almashinuv uning accreditation.nqaae.uz platformasi orqali elektron shaklda amalga oshiriladi, platformaga kirish OneID orqali ta’minlanadi. Agentlikka taqdim etiladigan kontingent, PO va o‘quv jarayoni ko‘rsatkichlari taqdim etish sanasidagi HEMIS ma’lumotlaridan olinadi va Akademik ishlar departamenti tomonidan HEMIS bilan solishtiriladi. Platformada ishlash uchun mas’ul xodimlar rektor buyrug‘i bilan belgilanadi.

7.4. Universitet platformalari HEMIS ga quyidagicha tayanadi: elektron kutubxonada ro‘yxatdan o‘tish HEMIS ID orqali amalga oshiriladi, Rektor virtual qabulxonasining Telegram boti foydalanuvchini HEMIS orqali tekshiradi. Bu kutubxona va murojaat xizmatlaridan Universitet talabalari va xodimlari foydalanishini ta’minlaydi.

7.5. HEMIS va LMS o‘rtasida integratsiya o‘rnatilmagan. Qaror asosi: oliy ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni to‘liq HEMIS da yuritiladi, LMS foydalanuvchilarining asosiy qismi – Foundation maktabi tinglovchilari, seminar va kurs ishtirokchilari – HEMIS dagi oliy ta’lim talabalari kontingentiga kirmaydi, integratsiya esa baho va davomatning ikkinchi manbasini yuzaga keltiradi. Integratsiya zarurati IT departamenti va Akademik ishlar departamenti taklifi bilan Universitet Kengashida ko‘rib chiqiladi va rektor buyrug‘i bilan hal etiladi.

7.6. Integratsiya boshqaruv va sifat nazoratiga quyidagicha xizmat qiladi: Universitet, Vazirlik va Agentlik bir xil ma’lumotdan foydalanadi, hisobotlarni qayta tayyorlash va raqamlar ziddiyati xavfi kamayadi, OneID orqali kirish parol bilan bog‘liq murojaatlarni qisqartiradi, HEMIS orqali tekshiruv ichki platformalarga begona shaxslar kirishining oldini oladi. Integratsiya ta’siri HEMIS sinxronlash xatolari soni (3-ilova, 14-band) va Agentlikka taqdim etilgan ko‘rsatkichlarning HEMIS ma’lumotlariga mosligi bo‘yicha yillik hisobotda baholanadi.

7.7. HEMIS mazmuni va foydalanuvchilarga uslubiy yordam bo‘yicha Vazirlik bilan aloqani Akademik ishlar departamentining ta’lim platformalari bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislari (J. Alimov, N. Salimov, keyingi o‘rinlarda – ta’lim platformalari mutaxassislari), HEMIS texnik nosozliklari bo‘yicha Vazirlikning HEMIS texnik yordami bilan aloqani IT departamenti boshlig‘i olib boradi. Vazirlik e’lon qilgan HEMIS yangilanishlari foydalanuvchilarga 3 ish kuni ichida yo‘riqnoma yoki e’lon orqali yetkaziladi.

MA’LUMOTLAR ANIQLIGI VA VERIFIKATSIYA

8.1. Dekanatlar har semestr boshida (semestr boshlanganidan keyin 10 ish kuni ichida) va oxirida (yakuniy nazoratlar tugaganidan keyin 10 ish kuni ichida) HEMIS dagi kontingentni rektor buyruqlari bilan solishtiradi va dalolatnoma

tuzadi. Dalolatnomani dekan imzolaydi, nusxasi Akademik ishlar departamentiga topshiriladi, aniqlangan nomuvofiqlik 5 ish kuni ichida tuzatiladi.

8.2. HR departamenti har semestr boshida HEMIS dagi PO va xodimlar ma’lumotlarini mehnat shartnomalari va kadrlar buyruqlari bilan solishtiradi, natijani ma’lumotnoma bilan Akademik ishlar departamentiga taqdim etadi.

8.3. Elektron jurnal to‘ldirilishi har hafta nazorat qilinadi: ta’lim platformalari mutaxassislari har haftaning birinchi ish kunida o‘tgan hafta bo‘yicha to‘ldirilmagan jurnallar ro‘yxatini dekanatlar va kafedra mudirlariga yuboradi, kafedra mudiri kamchilik 2 ish kuni ichida bartaraf etilishini ta’minlaydi.

8.4. Fan resurslari joylanganligini kafedra mudirlari semestr boshlanishiga qadar, Akademik ishlar departamenti semestrning birinchi haftasi oxirida va semestr o‘rtasida tekshiradi.

8.5. Aniqlangan har bir nomuvofiqlik reyestrda qayd etiladi: aniqlangan sana, tizim, ma’lumot turi, tavsif, mas’ul, bartaraf etilgan sana. HEMIS ma’lumotlari bo‘yicha reyestrni Akademik ishlar departamenti, Universitet platformalari bo‘yicha IT departamenti yuritadi. Nomuvofiqliklar soni va bartaraf etish muddatlari semestr tahliliy ma’lumoti va yillik hisobotda keltiriladi.

8.6. Sayt, abituriyent kabineti, Alumni platformasi va Karyera portalida faqat Universitetning tasdiqlangan rasmiy raqamlari e’lon qilinadi. Bir ko‘rsatkichning turli platformalarda farq qilishi nomuvofiqlik sifatida qayd etilib, IT departamenti va Marketing va PR departamenti tomonidan 5 ish kuni ichida tuzatiladi. Namunaviy (sinov) ma’lumotlar ochiq platformalarda joylanmaydi.

FOYDALANUVCHI HISOBLARI VA HUQUQLARI

9.1. Kirish huquqi rolga asoslangan holda va eng kam huquq tamoyili bo‘yicha beriladi. HEMIS dagi asosiy rollar: talaba, PO, kafedra mudiri, dekanat xodimi, HR departamenti xodimi, ta’lim platformalari mutaxassisi (administrator), rahbariyat.

9.2. HEMIS foydalanuvchi hisoblari va huquqlari Universitet tomonida Akademik ishlar departamentining ta’lim platformalari mutaxassislari va IT departamenti tomonidan birgalikda boshqariladi. Talaba hisobi qabul buyrug‘i, PO va xodim hisobi kadrlar buyrug‘i asosida yaratiladi, rol lavozim o‘zgarishi to‘g‘risidagi buyruq yoki bo‘linma rahbarining bildirishnomasi asosida o‘zgartiriladi.

9.3. Ishdan bo‘shagan xodimning hisobi barcha tizimlarda 3 ish kuni ichida o‘chiriladi (bloklanadi). HR departamenti bo‘shatish buyrug‘i imzolangan kuni IT departamentiga va Akademik ishlar departamentiga xabar beradi.

9.4. Parol kamida 8 belgidan iborat bo‘lib, harf va raqamni o‘z ichiga oladi, dastlabki parol birinchi kirishda almashtiriladi, pasport seriya-raqami, JShShIR va tug‘ilgan sana parol sifatida ishlatilmaydi. Administrator hisoblari uchun platforma imkon bergan hollarda ikki bosqichli autentifikatsiya qo‘llaniladi. Batafsil talablar Axborot xavfsizligi nizomida belgilanadi.

9.5. Administrator huquqiga ega hisoblar ro‘yxati yarim yilda bir marta, har semestr boshlanganidan keyin bir oy ichida qayta ko‘rib chiqiladi, natija IT

departamenti boshlig‘i va Akademik ishlar departamenti boshlig‘i imzolagan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

9.6. Hisob ma’lumotlarini boshqa shaxsga berish va boshqa foydalanuvchi hisobidan foydalanish taqiqlanadi. Shaxsga doir ma’lumotlar faqat xizmat vazifasi doirasida ishlatiladi.

ELEKTRON RESURSLARGA UZLUKSIZ KIRISH VA TEXNIK TA’MINOT

10.1. 1-ilovadagi tizimlar internet orqali kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun ishlaydi, ularga istalgan joydan kompyuter yoki mobil qurilma brauzeri orqali kiriladi. HEMIS ga OneID orqali kirish va elektron kutubxonaga HEMIS ID orqali ro‘yxatdan o‘tish foydalanuvchi eslab qolishi kerak bo‘lgan parollar sonini kamaytiradi. Fan resurslari va topshiriqlarning HEMIS da, adabiyotlarning elektron kutubxonada doimiy ochiqligi talabaga mustaqil ta’lim va nazoratlarga tayyorgarlikni dars jadvalidan qat’i nazar tashkil etish imkonini beradi.

10.2. Universitet binosida talabalar va PO uchun simsiz tarmoq (Wi-Fi) va kompyuter sinflari ta’minlanadi. IT departamenti ularning texnik holatini har semestr boshlanishidan oldin profilaktik tekshiradi.

10.3. Universitet serverlaridagi tizimlar (LMS, elektron kutubxona, Rektor virtual qabulxonasi, repozitoriy, Karyera portali, Alumni platformasi, Forecasting platformasi, veb-sayt) kundalik inkremental va haftalik to‘liq zaxiralanadi, zaxiralar kamida 30 kun saqlanadi, zaxira nusxalar Universitet serverining alohida zaxiralash (backup) qismida saqlanadi (HEMIS zaxirasi – Vazirlik serverida), tiklash sinovi chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi. Muhim tizimlar uchun ma’lumot yo‘qotilishining ruxsat etilgan davri (RPO) – 24 soat, ishni tiklash muddati (RTO) – 8 soat. HEMIS ma’lumotlar bazasini zaxiralash Vazirlik zimmasida.

10.4. IT departamenti tizimlar holatini har kuni tekshiradi va Universitet platformalarining ishlash vaqtini oyma-oy hisoblaydi, HEMIS dagi uzilishlar oylik hisobotda alohida qayd etiladi. Rejali texnik ishlar dars vaqtidan tashqarida o‘tkaziladi, foydalanuvchilar kamida 1 ish kuni oldin tegishli platforma, sayt yoki Universitetning Telegram kanali orqali xabardor qilinadi.

10.5. Murojaatlar Texnik qo‘llab-quvvatlash nizomida belgilangan kanallar orqali qabul qilinadi, har bir murojaat jurnalga kiritilib, identifikatsiya raqami beriladi. Murojaatlar 2-jadvaldagi muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

2-jadval.

Xizmat ko‘rsatish muddatlari (SLA)

Ustuvorlik	Holat	Javob berish	Bartaraf etish
P1 – kritik	o‘quv jarayoni yoki tizim to‘xtagan	30 daqiqa	4 soat
P2 – yuqori	asosiy funksiya buzilgan	1 soat	1 ish kuni
P3 – o‘rta	bitta foydalanuvchi yoki cheklangan xato	4 ish soati	3 ish kuni
P4 – past	maslahat, so‘rov	1 ish kuni	5 ish kuni

10.6. HEMIS ga kirish, parol, OneID va rol bo‘yicha birlamchi yordamni ta’lim platformalari mutaxassislari va IT departamenti ko‘rsatadi. HEMIS ning o‘zidagi nosozlik Vazirlikning HEMIS texnik yordamiga yuboriladi, Universitet ichida javob SLA bo‘yicha beriladi, bartaraf etish muddati Vazirlik javobiga bog‘liq bo‘ladi.

10.7. HEMIS, OneID, elektron kutubxona va LMS dan foydalanish yo‘riqnomalari saytda joylanadi. Har semestr boshida PO va birinchi kurs talabalari uchun trening o‘tkaziladi, yangi xodim ishga qabul qilingan haftada tizimlar bilan tanishtiriladi.

MAS’ULLAR

11.1. Nizom ijrosini umumiy nazorat qilish: HEMIS va o‘quv jarayoni ma’lumotlari bo‘yicha – Akademik ishlar bo‘yicha prorektor M. Amonboyev, axborot tizimlarining texnik ta’minoti bo‘yicha – Moliyaviy ishlar bo‘yicha prorektor, elektron kutubxona mazmuni bo‘yicha – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O. Qo‘ysinov.

11.2. Bo‘linmalarning vazifalari:

– Akademik ishlar departamenti (boshlig‘i O. Raximberdiyev, ta’lim platformalari bilan ishlash bo‘yicha mutaxassislar J. Alimov va N. Salimov, ECTS va dars jadvallari bo‘yicha mutaxassislar I. Abdug‘aniyev va O. Azizov) – HEMIS dagi o‘quv reja, yuklama va fanlar, HEMIS hisoblari va rollari, dars jadvali, elektron jurnal va fan resurslari monitoringi, nomuvofiqliklar reyestri, semestr tahliliy ma’lumoti,

– fakultet dekanatlari (dekanlar E. Umarov, Z. Xamidova) – kontingent ma’lumotlari, yakuniy qaydnomalar, kontingent verifikatsiyasi va dalolatnomalar,

– HR departamenti – PO va xodimlar ma’lumotlari, ularning verifikatsiyasi, bo‘shatilgan xodimlar haqida xabar berish,

– kafedralar – yuklama taqdimoti, fan resurslarini joylash, elektron jurnal to‘ldirilishi nazorati,

– IT departamenti (boshlig‘i X. Topilov) – texnik ta’minot, Universitet platformalarini ishlab chiqish va yuritish, zaxiralash va axborot xavfsizligi, texnik qo‘llab-quvvatlash, HEMIS bo‘yicha foydalanuvchi yordami va Vazirlikning HEMIS texnik yordami bilan aloqa, reyestr, oylik ichki hisobot va yillik hisobot,

– ARM (boshlig‘i Sh. Ibrohimova) – elektron kutubxona mazmuni va foydalanish statistikasi.

11.3. Jarayonlar bo‘yicha mas’uliyat taqsimoti 2-ilovadagi mas’ullar matritsasida keltirilgan. Har bir tizim va jarayon bo‘yicha mas’ul xodimlar rektor buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

MONITORING, HISOBOT VA KENGASH MUHOKAMASI

12.1. Raqamli ta’lim jarayoni 3-ilovadagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha monitoring qilinadi, har bir ko‘rsatkich uchun hisoblash usuli, maqsadli qiymati, manbasi, davriyligi va mas’uli belgilangan. Axborot tizimlarining ta’lim sifatiga ta’siri HEMIS dagi o‘rtacha davomat, akademik qarzdor talabalar soni va Agentlik

umummilliy so‘rovnomasidagi HEMIS ga oid ijobiy javoblar ulushi bo‘yicha yillik hisobotda baholanadi (3-ilova, 12–14-bandlar). 2025/2026 o‘quv yilidagi boshlang‘ich qiymatlar: o‘rtacha davomat 87,8 foiz, akademik qarzdorlar 27 nafar, PO ning 98,1 foizi va talabalarning 95,1 foizi HEMIS ni ijobiy baholagan.

12.2. Quyidagi hisobotlar tayyorlanadi:

– oylik ichki hisobot – platformalar ishlash vaqti, elektron kutubxona, LMS va repozitoriydan foydalanish (faol foydalanuvchilar, ko‘rishlar, yuklab olishlar), murojaatlar soni va SLA bajarilishi, insidentlar va zaxiralash bo‘yicha, IT departamenti oy tugaganidan keyin 5 ish kuni ichida Moliyaviy ishlar bo‘yicha prorektorga taqdim etadi, nusxasi Akademik ishlar departamentiga yuboriladi,

– semestr tahliliy ma’lumoti – elektron jurnal to‘liqligi, fan resurslari joylanganligi, kontingent va PO nomuvofiqliklari, KPI bajarilishi va chora-tadbirlar ijrosi bo‘yicha, Akademik ishlar departamenti IT departamenti bilan birgalikda semestr yakunlanganidan keyin 20 ish kuni ichida Akademik ishlar bo‘yicha prorektorga taqdim etadi,

– yillik hisobot – “Raqamli ta’lim axborot tizimlari faoliyati to‘g‘risida yillik hisobot”, IT departamenti Akademik ishlar departamenti ma’lumotlari asosida o‘quv yili yakunlari bo‘yicha har yili 1-oktabrgacha tayyorlaydi.

12.3. Yillik hisobotda KPI bajarilishi, nomuvofiqliklar reyestri, murojaatlar va insidentlar jurnallari asosida aniqlangan muammolar, ularning sabablari hamda mas’ul va muddat ko‘rsatilgan takliflar keltiriladi.

12.4. Yillik hisobot Universitet Kengashida yiliga kamida bir marta muhokama qilinadi. Kengash hisobot bo‘yicha qaror qabul qilib, chora-tadbirlar rejasini tasdiqlaydi. HEMIS da fan resurslari joylanganligi va elektron jurnal yuritilishi holati har semestr boshida, oldingi semestr yakunlari bilan birga Kengash yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi.

12.5. Chora-tadbirlar rejasi bo‘yicha mas’ullar har semestr yakunida ijro ma’lumotini Kengash kotibi B. Tolipovaga taqdim etadi. Ijro holati semestr tahliliy ma’lumotida va keyingi yillik hisobotda aks ettiriladi, muddatida bajarilmagan tadbir sababi bilan Kengashning navbatdagi yig‘ilishiga kiritiladi.

12.6. Kengash qarorining qisqacha mazmuni va yillik hisobot xulosasi qaror qabul qilingandan keyin 10 ish kuni ichida Universitet veb-saytida e’lon qilinadi, mas’ul – IT departamenti va Marketing va PR departamenti.

OLIY TA’LIMDAN KEYINGI TA’LIM VA ILMIY FAOLIYAT JARAYONLARI

13.1. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim va ilmiy faoliyat jarayonlari quyidagi axborot tizimlarida yuritiladi:

– Innovatsion rivojlanish agentligining oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi (daraja.ilmiy.uz) – qabul arizalari va hujjatlari, kvota, kirish imtihoni natijalari, Universitet Kengashi qarori bilan tasdiqlangan dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbar, yakka tartibdagi ish rejasi va uning bajarilishi, choraklik monitoring natijalari, kursdan kursga o‘tish va himoya holati,

– HEMIS ning “Doktorantura” bo‘limi – ixtisosliklar, doktorantlar va stajyor-tadqiqotchilar hisobi, ma’lumotlar Vazirlik bazasiga avtomatik uzatiladi,

– HEMIS ning “Ilmiy faoliyat” bo‘limi – ilmiy loyihalar, nashrlar, intellektual mulk, ilmiy faollik va ularni tasdiqlash, “Ilmiy statistika”, o‘qituvchi, kafedra va fakultet reytingi,

– repozitoriy (repository.nordicuniversity.org) – avtoreferatlar, dissertatsiyalar, konferensiya to‘plamlari, patentlar, guvohnomalar, ilmiy hisobotlar va Kengash materiallari,

– LMS – “Xalqaro ilmiy bazalar bilan ishlash maxsus malaka oshirish kursi” va ilmiy seminarlar materiallari.

13.2. Ma’lumotlarni kiritish va tasdiqlash: Kengash qarori bilan tasdiqlangan dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbar Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti tomonidan daraja.ilmiy.uz ga kiritiladi. Tadqiqotchi yakka tartibdagi ish rejasi va bajarilgan ishlar hisobotini kurslar kesimida daraja.ilmiy.uz ga yuklaydi, ilmiy rahbar ularni tasdiqlaydi (Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 8-apreldagi 03-03/1367-son xati). PO va tadqiqotchilarning nashrlari va intellektual mulk obyektlari HEMIS ning “Ilmiy faoliyat” bo‘limiga muallif tomonidan kiritiladi va kafedra hamda Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti tomonidan tasdiqlanadi.

13.3. Monitoring va nazorat: tadqiqotchilar faoliyati har chorakda rektor buyrug‘i bilan tuziladigan komissiya tomonidan monitoring qilinadi, komissiya tadqiqotchi hisobotini uning daraja.ilmiy.uz dagi ma’lumotlari bilan solishtiradi. Monitoring natijalari Universitet Kengashida muhokama qilinadi, qarorlarda daraja.ilmiy.uz ga ma’lumot kiritish holati ham baholanadi va choralar belgilanadi. Yillik ilmiy faoliyat natijalari Kengashning yil yakunidagi yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi.

13.4. Ma’lumotlar aniqligi: Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti har chorakda daraja.ilmiy.uz va HEMIS ning “Doktorantura” bo‘limidagi tadqiqotchilar ro‘yxatini rektor buyruqlari va Kengash qarorlari bilan solishtiradi. HEMIS ning “Sinxronizatsiya holati” bo‘limida doktorantlar, nashrlar va intellektual mulk bo‘yicha aniqlangan sinxronlash xatolari 5 ish kuni ichida bartaraf etiladi.

13.5. Yillik hisobotda oliy ta’limdan keyingi ta’lim bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlar aks ettiriladi: daraja.ilmiy.uz da monitoring natijasi kiritilgan tadqiqotchilar ulushi, yakka tartibdagi ish rejasi tasdiqlangan va bajarilgan tadqiqotchilar ulushi, HEMIS dan Vazirlik bazasiga uzatilgan nashrlar va intellektual mulk obyektlari soni, repozitoriyda joylangan avtoreferat va dissertatsiyalar soni.

13.6. Mas’ullar: Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti (boshlig‘i F. Irisqulov) – daraja.ilmiy.uz va HEMIS ning “Doktorantura” bo‘limidagi ma’lumotlar, ularning to‘g‘riligi va verifikatsiyasi, ilmiy rahbarlar – yakka tartibdagi ish rejasi bajarilishini tasdiqlash, kafedra mudirlari – PO ilmiy natijalarining HEMIS ga kiritilishi, IT departamenti – repozitoriy va LMS ning texnik ta’minoti hamda HEMIS sinxronlash xatolari bo‘yicha texnik yordam.

YAKUNIY QOIDALAR

14.1. Mazkur Nizom Universitet Kengashi qarori bilan ma’qullanib, rektor buyrug‘i bilan tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

14.2. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan e’tiboran 2026-yil may oyida tayyorlangan “Raqamli ta’lim jarayonini boshqarish tizimi (HEMIS va LMS) to‘g‘risida nizom”ning avvalgi tahriri va “Elektron baholash va akademik monitoring nizomi” qo‘llanilmaydi. Nizomning 13-bobi oliy ta’limdan keyingi ta’lim va ilmiy faoliyat jarayonlarini raqamli boshqarish bo‘yicha qo‘shimcha ravishda kiritildi. LMS dan foydalanish tartibi mazkur Nizomning 5-bobi bilan belgilanadi.

14.3. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar IT departamenti yoki Akademik ishlar departamenti taklifi bilan Universitet Kengashi qarori asosida kiritiladi. Tizimlar tarkibi o‘zgarganda 1-ilova IT departamenti tomonidan 3.3-bandda belgilangan tartibda, tashkiliy tuzilma o‘zgarganda 2-ilova rektor buyrug‘i bilan yangilanadi.

14.4. Nizom Universitet veb-saytida va repozitoriyda e’lon qilinadi, PO va xodimlar u bilan bo‘linma rahbarlari orqali tanishtiriladi.

IT departamenti boshlig‘i **X. Topilov**

Akademik ishlar departamenti boshlig‘i **O. Raximberdiyev**

Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig‘i **F. Irisqulov**

1-ilova

AXBOROT TIZIMLARI REYESTRI

(2026-yil 16-oktabr holatiga)

№	Tizim	Manzil	Egasi, joylashuvi	Vazifasi	Kirish usuli	Mas’ul
1	HEMIS OTM (xodimlar va PO)	hemis.nordicuniversity.org	Vazirlikning markazlashgan tizimi, Vazirlik serverida, UID 493	Kontingent, o‘quv reja, yuklama, fanlar, elektron jurnal, davomat, baholash, reyting, fan resurslari, hisobotlar	Login va parol (CAPTCHA bilan) yoki OneID	Akademik ishlar departamenti (J. Alimov, N. Salimov), texnik yordam – IT departamenti
2	HEMIS Student (talaba kabineti)	student.nordicuniversity.org	HEMIS tarkibida	Dars jadvali, davomat, baholar, fan resurslari, topshiriqlar, arizalar	Talaba ID va parol yoki OneID	Akademik ishlar departamenti, dekanatlar
3	LMS (Moodle)	distance.nordicuniversity.org	Universitet serveri, IT departamenti	Foundation dasturlari, onlayn seminar, trening, malaka oshirish kurslari, 2022–2023 yillar arxivi	Alohida LMS login va paroli, HEMIS bilan integratsiya yo‘q	IT departamenti
4	Elektron kutubxona	e-kutubxona.nordicuniversity.org	Universitet serveri, IT departamenti ishlab chiqqan, mazmun egasi – ARM	Elektron katalog, elektron kitoblar, bron, onlayn uzaytirish, maqolalar, jurnallar	HEMIS ID orqali ro‘yxatdan o‘tish	ARM (Sh. Ibrohimova), IT departamenti
5	Rektor virtual qabulxonasi	rm.nordicuniversity.org	Universitet serveri, IT departamenti ishlab chiqqan	Rektorga murojaatlar, 15 yo‘nalish, uch tilda	Telegram bot orqali, HEMIS orqali tekshiruv	IT departamenti
6	Repozitoriy	repository.nordicuniversity.org	IT departamenti	Akademik, me’yoriy hujjatlar va ilmiy ishlar arxivi	Ochiq qism – hammaga, yopiq qism – login bilan	IT departamenti

7	Karyera portali	career.nordicuniversity.org	IT departamenti	Vakansiyalar, amaliyotlar, grantlar, tadbirlar, hamkorlar	Ochiq	IT departamenti, mazmun – dekanatlar, Marketing va PR departamenti
8	Alumni platformasi	alumni.nordicuniversity.org	IT departamenti	Bitiruvchilar tarmog‘i va statistik bazasi	Ochiq	IT departamenti, mazmun – fakultet dekanatlari
9	Dars jadvali	nordic.edupage.org	EduPage xizmati	Dars jadvallari	EduPage, Google yoki Microsoft hisobi	Akademik ishlar departamenti (I. Abdug‘aniyev, O. Azizov)
10	Forecasting platformasi	forecasting.nordicuniversity.org	IT departamenti	Sillabuslar, kafedra ish rejalari, o‘quv rejalar, PO ish rejalari va KPI, yuklama taqsimoti	Xodim hisobi	IT departamenti
11	Rasmiy veb-sayt	nordicuniversity.org	IT departamenti va Marketing va PR departamenti	Rasmiy axborot, me’yoriy hujjatlar, yangiliklar, “Ta’lim resurslari” bo‘limi	Ochiq	IT departamenti, Marketing va PR departamenti (B. Olimjonov)
12	Abituriyent kabineti	cabinet.nordicuniversity.org	Qabul jarayonlarini tashkil etish bo‘limi	Qabul arizalari	Abituriyent hisobi	Qabul jarayonlarini tashkil etish bo‘limi, texnik – IT departamenti
13	Korporativ elektron pochta	web5.webspace.uz/webmail (saytdagi havola orqali)	Xosting provayderi serveri	Xodimlar elektron pochtasi	Xodim hisobi	IT departamenti (hisoblarni boshqarish)
14	Ilmiy jurnal	journal.nordicuniversity.org	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti	Taqrizlanadigan ochiq kirishli ilmiy jurnal	Ochiq	Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti, texnik – IT departamenti

Saytning “Ta’lim resurslari” bo‘limida qo‘shimcha raqamli resurslar ham joylangan: Yashil universitet (green.nordicuniversity.org – ekologik ta’lim, barqarorlik tadbirlari va ko‘rsatkichlari), XNU malaka oshirish (nordictraining.uz), Kitoblar javoni, elektron va audio kitoblar, Nordik jurnali, “Iqtisodiyot kursi” ochiq onlayn kursi, Academic Scientific Research konferensiyalari, O‘zbekiston-Finlandiya do‘stlik jamiyati, Nordik foundation maktabi va TasIMO jamoat fondi saytlari. Ular talabalar va PO ning mustaqil ta’limi, qo‘shimcha o‘qishi va malaka oshirishi uchun ishlatiladi, o‘quv jarayonining rasmiy ma’lumotlari ularda yuritilmaydi.

2-ilova

MAS’ULLAR MATRITSASI

Jarayon	Akademik ishlar departamenti	Dekanatlar	HR departamenti	Kafedralar	IT departamenti	ARM
Talabalar kontingentini HEMIS da yuritish	N	M	–	–	Y	–
PO va xodimlar ma’lumotlarini yuritish	N	–	M	I	Y	–
O‘quv reja, fanlar va yuklamani kiritish	M	I	–	I	Y	–
Dars jadvalini EduPage da yuritish, HEMIS bilan uyg‘unligi	M	I	–	I	–	–
Fan resurslarini HEMIS da joylash	N	–	–	M	Y	–
Davomat va baholarni kiritish	N	N	–	M	Y	–
Elektron jurnal to‘ldirilishining haftalik nazorati	M	I	–	I	–	–
Kontingent verifikatsiyasi va dalolatnoma	N	M	–	–	–	–
PO ma’lumotlari verifikatsiyasi	N	–	M	–	–	–
HEMIS hisoblari va rollari	M	I	I	–	M	–
HEMIS bo‘yicha foydalanuvchi yordami	M	–	–	–	M	–
Vazirlikning HEMIS texnik yordami bilan aloqa	I	–	–	–	M	–
Agentlik platformasiga ma’lumot taqdim etish	M	I	I	I	Y	–
LMS, Universitet platformalari ishlashi	–	–	–	–	M	–
Elektron kutubxona mazmuni	–	–	–	I	Y	M
Zaxiralash, axborot xavfsizligi	I	–	–	–	M	–
Nomuvofiqliklar reyestri	M	I	I	I	M	–
Oylik ichki hisobot	I	–	–	–	M	–
Semestr tahliliy ma’lumoti	M	I	I	I	I	–
Yillik hisobot, axborot tizimlari reyestri	I	I	I	–	M	I

M – mas’ul ijrochi, N – nazorat qiladi, Y – texnik yordam ko‘rsatadi, I – ishtirok etadi yoki ma’lumot beradi, “–” – ishtirok etmaydi.

3-ilova


MONITORING KO‘RSATKICHLARI (KPI)

№	Ko‘rsatkich	Hisoblash usuli	Maqsadli qiymat	Manba, davriylik	Mas’ul
1	Elektron jurnal to‘liqligi	Davomat va baho kiritilgan mashg‘ulotlar sonining dars jadvali bo‘yicha o‘tkazilgan mashg‘ulotlar soniga nisbati, foizda	kamida 95 foiz	HEMIS, haftalik va semestr yakunida	Kafedra mudirlari, Akademik ishlar departamenti
2	Fan resurslari joylangan fanlar ulushi	Fan resurslari joylangan fanlar sonining semestrda o‘qitiladigan fanlar soniga nisbati, foizda	100 foiz	HEMIS, semestr boshida va o‘rtasida	Kafedra mudirlari, Akademik ishlar departamenti
3	Kontingent nomuvofiqliklari	Semestr oxiridagi dalolatnomada qayd etilgan va tuzatilmagan nomuvofiqliklar soni	0	Dalolatnomalar, semestrda 2 marta	Dekanatlar
4	PO ma’lumotlari nomuvofiqliklari	Solishtirishda aniqlangan va tuzatilmagan nomuvofiqliklar soni	0	HR ma’lumotnomasi, semestrda	HR departamenti
5	Universitet platformalari ishlash vaqti	Har bir platforma (e-kutubxona, Rektor virtual qabulxonasi, repozitoriy, LMS, veb-sayt) ishlagan vaqtining oydagi umumiy vaqtga nisbati, foizda	kamida 99 foiz	Monitoring tizimi, oylik	IT departamenti
6	SLA bajarilishi	Belgilangan muddatda hal etilgan murojaatlar sonining jami murojaatlar soniga nisbati, foizda	kamida 90 foiz	Murojaatlar jurnali, oylik	IT departamenti
7	Foydalanuvchi qoniqishi	So‘rovnomadagi o‘rtacha ball, 5 ballik shkalada	kamida 4 ball	So‘rovnoma, yiliga kamida 1 marta	IT departamenti, Ta’lim sifatini rivojlantirish bo‘limi
8	Zaxiradan tiklash sinovi	Muvaffaqiyatli yakunlangan sinovlar soni	chorakda kamida 1 ta	Zaxiralash jurnali, choraklik	IT departamenti
9	Bo‘shagan xodim hisobini o‘z vaqtida o‘chirish	3 ish kunida o‘chirilgan hisoblar sonining bo‘shatilgan xodimlar soniga nisbati, foizda	100 foiz	Kadrlar buyruqlari, oylik	IT departamenti, HR departamenti
10	Administrator huquqlarini qayta ko‘rib chiqish	Rasmiylashtirilgan dalolatnomalar soni	yarim yilda 1 ta	Dalolatnoma, yarim yillik	IT departamenti, Akademik ishlar departamenti
11	Kengash chora-tadbirlari ijrosi	Muddatida bajarilgan tadbirlar sonining rejadagi tadbirlar soniga nisbati, foizda	kamida 90 foiz	Ijro ma’lumoti, semestrda	Tadbir mas’ullari, Kengash kotibi


12	O‘rtacha davomat	HEMIS “Davomat foizi” hisobotidagi umumiy davomat, foizda	oldingi o‘quv yilidan past emas (2025/2026 – 87,8 foiz)	HEMIS, semestr yakunida	Akademik ishlar departamenti, dekanatlar
13	Akademik qarzdor talabalar	Yakuniy nazoratdan qarzdor talabalar soni	oldingi o‘quv yilidan oshmasligi (2025/2026 – 27 nafar)	HEMIS, semestr yakunida	Akademik ishlar departamenti, dekanatlar
14	HEMIS sinxronlash xatolari	“Sinxronizatsiya logi”da qayd etilgan va 5 ish kuni ichida bartaraf etilmagan xatolar soni	0	HEMIS, oylik	Ta’lim platformalari mutaxassislari, IT departamenti

4-ilova

SAYTDAGI “TA’LIM RESURSLARI” BO‘LIMI VA HEMIS KIRISH OYNASI



1-rasm. Universitet saytidagi “Ta’lim resurslari” bo‘limi: HEMIS, Rektor virtual qabulxonasi, Alumni, dars jadvali, korporativ pochta, repozitoriy, elektron kutubxona (Nordik ARM) va boshqa havolalar (nordicuniversity.org/uz/education/resources, 2026-yil 16-oktabr holati)



2-rasm. HEMIS Student kirish oynasi: Talaba ID va parol yoki OneID orqali kirish, dastur versiyasi 1.9.71, UID 493 (student.nordicuniversity.org, 2026-yil 16-oktabr holati)